



[ng] tovushi – undosh tovush.
Talaffuzida til oʻrtasi tanglayga qarab koʻtariladi va havo burun orqali chiqadi.



37

Boshqa-boshqa ikki harf
Ishlar bitta tovush uchun.
“N” va “G”ning juftligi
Koʻrsatar dimogʻ kuchin.



ong
chang
teng

si-ngil
de-ngiz
koʻ-ngil

at-tang
shud-ring
bod-ring



Tez aytilish

Tonggi toza havo –
Tanangga koni davo.



Tong

Tong otmoqda, sutdek oppoq tong,
Xayrlashib tun bilan shodon.
Tong ortidan quyosh urib bong,
Chiqar – nurin sohib har tomon.

Olimjon Xoldor

